

BILIM – SAODAT YO‘LI

Xo‘janova Gulchehra,

Toshkent davlat yuridika universiteti qoshidagi akademiy litsey kafedra mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Sharq adabiyotining muhim maslaklaridan biri ilm-ma’rifatni ulug’lash, uni targ‘ib etishdir. Bu an’ana ilk turkiy dostonlardan boshlanganligi shubhasiz. Maqola “Hibat ul-haqoyiq” dostonida bilim xususidagi qarashlarning tahviliga bag‘ishlangan. Jumladan, adib tayangan asos ilohiy manbalar, ifoda usuli e’tiborga olingan. Asarning bugungi yoshlarga ta’siri ham yodda tutilgan.

Kalit so‘zlar: doston, ma’rifat, din, hadis, axloq, bilim, mukoshafa, matn, maqol.

KNOWLEDGE IS THE WAY TO HAPPINESS

Khojhanova Gulchehra,

at the Tashkent State University of Law academic lyceum department head, candidate of philological sciences, associate professor

Abstract: One of the important aspects of Eastern literature is the glorification of knowledge and its promotion. There is no doubt that this tradition began with the first Turkish epics. The article is devoted to the analysis of views on knowledge in the epic «Hibat ul-haqayq». In particular, the divine sources, the method of expression on which the writer relies, are taken into account. The impact of the work on today’s youth is also kept in mind.

Key words: epic, enlightenment, religion, hadith, morality, knowledge, mukoshafa, text, proverb.

ЗНАНИЯ – ПУТЬ К СЧАСТЬЮ

Ходжанова Гульчехра,

в Ташкентском государственном юридическом университете заведующий отделением академического лицея, кандидат филологических наук, доцент

Аннотация: Одним из важных аспектов восточной литературы является прославление знаний и их пропаганда. Нет сомнения, что эта традиция началась с первых турецких эпосов. Статья посвящена анализу взглядов на знание в эпосе «Хибат уль-хакайк». В частности, учитываются божественные источники, способ выражения, на который опирается писатель. Также учитывается влияние работы на современную молодежь.

Ключевые слова: эпос, просвещение, религия, хадис, мораль, знание, мухашафа, текст, пословица.

Kirish. «Hibat ul-haqoyiq» ma’no va mazmun e’tibori bilan o‘ziga xos bir axloqiy-ta’limiy asardir. O‘tgan asrning o‘ninchı yillari o‘rtalaridan boshlab, ya’ni «Hibat ul-haqoyik» ilk bora nashr etilganidan buyon tadqiqotchilar uning ma’no va mazmuni haqida o‘z mulohazalarini ifodalab keladilar.

Asarning birinchi tadqiqotchi va noshirlaridan hisoblanmish R.R.Aratinning e’tirof etishicha, «Hibat ul-haqoyiq» she’riy shaklda yozilgan axloqiy kitobdir. Undagi fikrlar ko‘p marotaba oyat, hadis va boshka arabiylar bilan ziynatlangan. Atoqli turk olimi M.F.Ko‘pruluning fikricha, «Atebatul haqoyik» axloq haqida diniy nuqtai nazar bilan yozilgan.ta’limiy asar, ya’ni bir nasihatnomadir... Mafkura jihatidan bu asarni «Qutadg‘u bilig» bilan muqoyasa qiladigan bo‘lsak, yarim asrlik muddat orasida diniy qarash va diniy hukmlarning naqadar kuchayganligini anglaymiz. «Qutadg‘u bilig»da mavjud bo‘lgan falsafiy mushohada o‘rnida “Atebat ul haqoyiq”da diniy ideologiya hokimdir».

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek adabiyotshunosligida Adib Ahmadning hayoti va asari hakida birinchi bo‘lib maqola e’lon qilgan professor Fitrat shunday yozadi: «Hibat ul-haqoyiq» mundarija e’tibori bilan «diniy axloq» o‘rgatuvchi manzum bir risoladan iboratdir» [3,43]. Akademik Oybek ta’rifiga binoan, «Hibat ul-haqoyiq» ham «Qutadg‘u bilig» singari didaktik asardir. «U islom dini axloqini tashviq qilish uchun yozilgan»[5,6].

«Hibat ul-haqoyiq» ustida ilmiy tekshirishlar olib borgan uyg‘ur, tatar, qozoq olimlari ham asarda axloqiy didaktik mohiyat ustuvor ekanligiga diqqatni jalg etadilar. Bizning nazarimizda, «Hibat ul-

haqoyiq»ning ma’no tamoyili va mundarijasi haqida qat’iy xulosaga kelish uchun, avvalo, uning g‘oyaviy qurilishini nazardan o‘tkazish lozim bo‘ladi.

Tadqiqot va natijalar. Bizning nazarimizda, asarning g‘oyaviy-badiiy quvvatini belgilaydigan va Adib Ahmadning mutafakkirlik iste’dodini ko‘rsatadigan boblardan biri, ilmdan bahs etilgan bobdir. Uningcha, ilm nuri bilan saodat yo‘li yorishadi. Bu yo‘lga kirishni istagan odam, albatta, ilm egallashi zarurdir:

Bilik birla bil(i)nur saodyt yo‘li,
Bilik bil saodat yo‘lini bula.

Mazmuni: Bilim bilan saodat yo‘li ochiladi, shunga ko‘ra, ilmlni bo‘l, baxt yo‘lini izla [1,40].

Darhaqiqat, Adib Ahmadning ilmnini baxt va saodat yo‘li deb belgilashi tasodifiy emas. Insoniyat farzandi ilm orqali o‘zini jaholat, nodonlik, gumroxlik singari ofat va balolardan xalos etadi. Ikkinchidan, u Haqni botildan farqlab, dunyo va hayot sirlarini bilish imkoniyatiga erishadi. Eng muhimi, ko‘nglini o‘tkinchi orzu-havaslardan muhofaza aylaydi. Hech bir e’tiroz yo‘qki, Adib Ahmad ilm va uning fazilatlari haqida so‘z yuritganda, eng avvalo, din va shariat ilmini nazarda tutgan. Shu o‘rinda u ilmni faqat din doirasida tushunib, talqin qilgan deyish ham haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Uning uchun adab, nafs tarbiyasi, komil inson martabasiga ko‘tarilish ham bevosita ilm bilan aloqador edi. Bir tasnifga ko‘ra, Sharqda ilm ikkiga ajratilgan. Birinchisi, o‘qish va mantiqiy fikrlash orqali egallanadigan ilm. Bunga kasbiy ilm deyilgan. Ikkinchisi, vahbiy ilm bo‘lib, u Alloh tomonidan kalbga berilganligi uchun ma’rifat deyilgan. Diniy ilmlar ham ikki turga bo‘linadi:

1. Muomala ilmi.
2. Mukoshafa ilmi.

Muomaladan maqsad insonning amali, axloki va ibodatini o‘rganishdan iboratdir. Muomala ilmi ham o‘z navbatida ikki qismga bo‘lingan: ilmi zohir va qalb fe’llarini o‘rganuvchi ilmi haqiqatdir. Mukoshafa ilmi deb so‘zdan emas, hol orqali bevosita Haqdan olinadigan ilmga aytildi. Dunyodagi barcha ilmlar haqiqatni bilish va dunyoning sir-asrorlarini kashf etib, insonni komillashtirishga xizmat qiladi. Sharqning ilg‘or fikrli olim va oriflarining e’tirofiga ko‘ra, kimyo, matematika, fizika, astronomiya kabi fanlarning hammasida ham xayrli maqsadlar bor. Botiniy ilm axloq va haqiqat ilmi bo‘lganligi uchun uni egallash ancha qiyin bo‘lgan. Ahmad Yugnakiyning ilm va ma’rifat to‘g‘risidagi fikrlariga chuqurroq nazar tashlansa, bu buyuk mutafakkirning axloq va haqiqat ilmiga tayanib, fanning barcha tarmoqlarini o‘qib o‘rganishga da’vat qilganligi sir bo‘lmay qoladi. Shuning uchun shoir ilm tushunchasini keng miqyosda qabul qilib, ham diniy, ham dunyoviy ilmlar xususida mushohada yuritganligini, albatga, hisobga olish lozim.

«Biz erkak deb yurgan kishilardan ko‘plari xotundir. Xotun deganimiz zotlar orasinda haqiqiy eranlar (avliyoulloh) esa bisyor», degan ekan Ibn Arabiy. Xuddi shunga o‘xshash gap Farididdin Attorning «Tazkirat-ul avliyo» asarida Robiya al-Adaviyya munosabati bilan ham aytilgan. Bunda hadisda zikr etilgan «Alloh sizning shakllaringizga emas, niyatlariningizga boqar», — degan fikrga asoslanilgan. E’tiborli tomoni shundaki, Farididdin Attor va Ibn Arabiy kabi allomalardan ancha oldin Adib Ahmad «Biliklik tishi er, johil er tishi» (bilimlik xotin kishi — er kishidir, bilimsiz erkak — xotin kishidir) degan hukmni bayon qilgan. N.S.Banarlining ta’kidlashicha, Adib Ahmadning bilimli ayolni erkak bilan teng ko‘yishi yangi ijtimoiy nuqtai nazarning ifodasi bo‘lib, «Bu nuqtai nazarga ko‘ra, ayol islomiyatning ilk asrlaridan boshlab eski turk qavmlari muhitida yuksak mavqega ko‘tarilganligidan dalolat beradi[2,145]». Ma’lumki, o‘tmishda ilm va ma’rifat bir-biridan qat’iy tarzda ajratilmagan bo‘lsada, ular ayni bir narsa deb ham qaralmagan. Haqqoniy ma’rifat esa ilhomga tayangan vositasiz ilm, ya’ni irfon demoqdir. Shuningdek, Allohnini tanish va bilish ilmiga ham ma’rifat deyilgan. Adib Ahmad «Bilik birla bilinur to‘ratkan idi — yaratgan Tangri ilm bilan taniladi», — deydi. Shu erda shoirning eran, ya’ni avliyoullohdan bahs yuritishini ko‘zdan kechirsak:

So‘ngakka tek eranga bilik,
Eran ko‘rki aql o‘l, so‘nakning yilik, -

So‘ngakda ilik bo‘lishi lozim ekanligi kabi er kishiga bilim kerakdir, er kishining ko‘rki aqldir, so‘ngakning ko‘rki esa ilikdir [1,41], deyishi ham bevosita ma’rifat bilan bog‘liq. Bunday xulosaga kelishimizning yana bir sababi shundaki, Adib Ahmad tiriklikning tub mazmuni va inson uchun abadiyat sirini kashf qilishni xam ma’rifat egallashda ko‘radi. U bilimsiz, ma’rifatsiz umr kechirishni hayot

hisoblamaydi. Ming ilmsizdan birgina ilm va ma'rifat sohibini ustun qo'yadi:

Biliklik biringa biliksiz mingin,
Tengakli tengadi bilikning tegin.

Mazmuni: Bilimlikning biri bilimsizning mingiga teng, ilmlii kishilar ilmnning qadriga etadi [1,41].

Adib Ahmad bu bobdag'i bayt va misralarning, deyarli, har birida «biliklik» va «biliksiz» so'zlarini qo'llaydi. Biliklikning fe'l-atvori, fazilat va haqiqatlari nima-yu, biliksizning taqdiri va zavoli nimalardan iboratligini donishmandlik bilan tavsiflab beradi. Uningcha, zar qadrini zargar biladi deganlaridek, bilimli odam ilmnning mohiyatini aniq anglaydi va uni qadrlaydi. Ikkinchidan, u nima ishga qo'l ursa, bilib qiladi va keyin pushaymon qilmaydi. Bilimdon odam faqat botinda emas, zohirda ham boshqalarga namuna ko'rsata oladi. Chunki, u hech qachon keraksiz so'zni ishlatmaydi va undan voz kechishga qodir bo'ladi:

Biliklik keraklik so'zin so'zlayur,
Keraksiz so'zini ko'mub kizlayur.

Mazmuni: Bilimli kishi kerakli so'zni so'zlaydi, keraksiz so'zni ko'mib yashiradi [1,48].

Shu tariqa bilimli kishi o'zining hikmatli so'zları, adab va tavoze'korligi bilan Arabu Ajamda olqishga sazovor bo'ladi. Bu kabi xislat va fazilatlardan benasib kolgan bilimsizlarning har qanday kulfat va fojeaga giriftor bo'lishini Yugnakiy shunday asoslaydi:

Biliksizga haq so'z tatiqsiz erur,
Anga pand-nasihat osigsiz erur.
Ne turluk ariqsiz arir, yuv desa,
Johil yup arimas arigsiz erur.

Mazmuni: Ilmsizga to'g'ri so'z ma'nosizdir, unga o'git-nasihat foydasizdir. Bir qancha yuviqsizlarga yuvinish uchun buyurilsa toza bo'lur, ammo johil qancha yuvinmasin pok bo'lmaydi [1,44].

Bir qarashda, Ahmad Yugnakiyning ilmnning manfaati va jaholatning zarari haqidagi bunday qarashlari ancha jo'n va oddiy bo'lib tuyuladi. Aslida esa, bu mutafakkir ijodkor eng zarur so'z va tushunchalarga tayanib, ilmlii odamning barcha zamonlar uchun birdek ataladigan badiiy ta'rifini beradi hamda o'quvchi tasavvurida uning jonli siyomosini yaratadi. Uning qiyofasini ko'z oldingizga gavdalantirmoqchi bo'lsangiz, tabiiy tarzda ilmni sevguvchi va ilm egallash uchun zahmat chekuvchi, axloq-odobi baland bir dono odamning qiyofasi namoyon bo'ladi. Ehtimol, ana shuning uchun ham asarning keyingi bo'limlarida muallif nuqtai nazari bilan ma'rifatparvar shaxsning nuqtai nazarlari o'zaro bog'lanib, bir-birini to'ldirib borganga o'xshash bir taassurot hosil qiladi. Masalan, tilni tiyish va odob-axloqqa bag'ishlangan qismdagi fikrlarni olaylik. Albatta ular, eng avvalo, Adib Ahmadga tegishlidir. Lekin ayni paytda ulardag'i biror bir jumlanı ham bilimli kishilarga begona yoki ularning mushohadasidan yiroq jumlalar deyish mumkin emas. Demak, shoir asarida o'z davri ilm ahlining ilg'or qarashlarini umumlashtirishni ko'zlagan va buning uddasidan chiqqan deyishga asosimiz bor. Buning bir sababi shuki, asardagi bir qator baytlar mazmun mohiyati bilan xalq maqollariga nihoyatda yaqin turadi:

Sonip so'zlagan er so'zi so'z sogi,
O'kush yangshagon til ay olmas yogi.

Mazmuni: O'ylab so'zlagan kishining so'zi to'g'ridir, o'rinsiz ko'p vaysagan til shafqatsiz yovdir [1,47].

Bu baytni o'qiganda xalqimizning til odobi, xususan, tilni asrashga oid «O'ynab so'zlasang ham o'ylab so'zla» kabi maqollari xayolga keladi.

Xulosa. Ahmad Yugnakiyning ilm, ma'rifat haqidagi fikr-qarashlari bugungi yoshlar uchun ham ibratdir. Adib bilimning foydalarini shunchaki ta'rif-tavsif etmaydi, balki uning asari bevosita ilm va olimlikning targ'ibiga ham xizmat qiladi. Yugnakiyning ifoda tarzining jonli va ta'sirchanligi esa alohida ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq. – T.: Badiiy adabiyot, 1968.

Banarli N. Rasmi turk adabiyoti tarixi. 1 – jild.

Fitrat A. «Qutadg'u bilig». «Maorif va o'qitg'uvchi», 1925, 2-son.

Fitrat A. Aybatul haqoyiq. «Maorif va o'qitguvchi». 1928, 10-son.

Farididdin Attor, «Tazkirat-ul avliyo». -Toshkent, 1997.

Xo'janova G. Hibat ul-haqoyiq haqiqatlari. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2001.

O'zbek poeziyasnnipg antologiyasi. 1948.